INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation

Vol.4 №11 (2026). NOVEMBER

innovativepublication.uz

LEGAL SAFEGUARDS FOR ADMINISTRATIVE DECISIONS INVOLVING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC SERVICES: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND DIRECTIONS FOR IMPROVING UZBEKISTAN'S LEGISLATION

Ibragimova Shoxzoda Asqar qizi

Master's Student, Tashkent State University of Law

E-mail: shahrimibrahimova@gmail.com

DAVLAT XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI MA'MURIY QARORLAR UCHUN HUQUQIY KAFOLATLAR: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Ibragimova Shoxzoda Asqar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

E-mail: shahrimibrahimova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada davlat xizmatlarini ko'rsatishda sun'iy intellekt ishtirokida shakllantiriladigan ma'muriy qarorlar uchun huquqiy kafolatlar tizimi xorijiy tajriba va O'zbekiston qonunchiligi misolida tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Fransiya va Kanada modellari oltita mezon bo'yicha taqqoslanib, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 7^1-moddasi hamda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun normalari bilan solishtirildi. Ko'rsatilishicha, 7^1-modda matni "faqat sun'iy intellekt yordamida yaratilgan" xulosalarga tayanishni taqiqlaydi, bu esa mansabdor shaxsning shakliy ishtirokida taqiqni chetlab o'tish xavfini saqlab qoladi. Shu bilan birga ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi Qonunning amaldagi normalaridan sun'iy intellekt ishtirokidagi qarorlar uchun bir qator talablar kelib chiqishi asoslandi. Muallif sun'iy intellektning davlat boshqaruvidagi axborot beruvchi, tavsiya beruvchi, qarorni shakllantiruvchi rollari va ma'muriy ixtiyoriylikka bog'liq tabaqalashtirilgan kafolatlar modelini, mazmunli inson ishtiroki mezonlarini hamda Qonunga kiritiladigan 52^1-modda ("Avtomatlashtirilgan ma'muriy hujjat") loyihasini taklif qiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, davlat xizmatlari, ma'muriy hujjat, ma'muriy tartib-taomillar, inson nazorati, qarorni asoslash, kontrfaktual tushuntirish, ma'muriy ixtiyoriylik, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Аннотация. В статье на примере зарубежного опыта и законодательства Узбекистана анализируется система правовых гарантий для административных решений, принимаемых с участием искусственного интеллекта при предоставлении государственных услуг. Модели Европейского союза, Германии, Франции и Канады сопоставлены по шести критериям с нормами статьи 7¹ Закона «Об информатизации» и Закона «Об административных процедурах». Показано, что текст статьи 7¹ запрещает опираться на заключения, созданные «только» с использованием искусственного интеллекта, что оставляет риск формального участия должностного лица. Вместе с тем обосновано, что из действующих норм Закона об административных процедурах (статьи 9, 15, 18, 33, 52–54, 63–66) вытекает ряд требований к решениям с участием искусственного интеллекта. Автор предлагает дифференцированную модель гарантий, основанную на трёх ролях искусственного интеллекта и на ограничении полной автоматизации сферой связанных решений, критерии содержательного участия человека и проект статьи 52¹ («Автоматизированный административный документ»).

Ключевые слова: искусственный интеллект, государственные услуги, административный документ, административные процедуры, человеческий надзор, обоснование решения, контрфактическое объяснение, административное усмотрение, сравнительно-правовой анализ.

Abstract. The article analyses the system of legal safeguards for administrative decisions made with the participation of artificial intelligence in public service delivery, drawing on foreign experience and the legislation of Uzbekistan. The models of the European Union, Germany, France and Canada are compared against six criteria and set beside Article 7¹ of the Law “On Informatization” and the Law “On Administrative Procedures”. The study shows that the text of Article 7¹ prohibits reliance on conclusions produced “solely” with the use of artificial intelligence, which leaves open the risk of merely formal involvement of an official. At the same time, it argues that the existing provisions of the Law on Administrative Procedures (Articles 9, 15, 18, 33, 52–54 and 63–66) already imply a number of requirements for AI-assisted decisions. The author proposes a graded model of safeguards based on three roles of AI and on limiting full automation to bound decisions, criteria of meaningful human involvement, and a draft Article 52¹ (“Automated administrative document”).

Keywords: artificial intelligence, public services, administrative document, administrative procedures, human oversight, reasoning of decisions, counterfactual

explanation, administrative discretion, comparative legal analysis.

Kirish. Davlat xizmatlari raqamlashgani sari fuqaro bilan davlat orasida tobora ko‘proq jarayonlar amalga oshadi. Ariza beriladi, tizim ma’lumotlarni bir necha soniyada tekshiradi va natija, ya’ni ruxsat yoki rad javobi ekranda paydo bo‘ladi. Qaror ijobiy bo‘lsa, fikrlar kam bo’ladi. Lekin aksincha rad javobi kelganda esa sabab nima, uni kim tekshirgan va kimga shikoyat qilinadi degan savollar tug‘iladi.

So‘nggi ikki yilda O‘zbekistonda bu jarayon me’yoriy asosga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-iyuldagi 425-son Qarori sun’iy intellekt sohasidagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgiladi [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 22-oktyabrdagi 189-son Farmoni texnologiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha choralarni nazarda tutdi [2]. 2026-yil 21-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining 1115-sonli “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunga sun’iy intellekt ta’rifini va yangi 7^1-moddani kiritdi [3]. 2026-yil 24-fevralda Raqamli texnologiyalar vazirining buyrug‘i bilan sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish va qo‘llash bo‘yicha etika qoidalari tasdiqlandi [4], 2026-yil 24-iyuldagi 141-sonli Prezident Farmoni esa raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt strategiyalarini yangilash hamda uyg‘unlashtirishni belgiladi [5].

Bu hujjatlar sun’iy intellektdan foydalanishning umumiy chegaralarini belgilasada, biroq davlat xizmatlarida fuqarolarning tinglanish, qarorni asoslash, uni shikoyat qilish kabi huquqlari amalda aynan ma’muriy tartib-taomil orqali himoyalanadi. Bu masalalar O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi 457-sonli “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunida tartibga solingan [6]. 2026-yil 3-oktyabrda Senat yalpi majlisida “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun taqdim etilgan tahrirda ma’qullanmadi, senatorlar ma’muriy organlar tomonidan qarorlar qabul qilish va ularni shikoyat qilish tartiblari yetarli aniq belgilanmaganini kamchiliklar qatorida qayd etdi [7]. Bu muhokama sun’iy intellekt masalasini ham ma’muriy tartib-taomil qoidalariga kiritish uchun qulay fursatni yaratadi.

Maqolaning maqsadi sun’iy intellekt ishtirokida shakllanadigan ma’muriy qarorlar uchun huquqiy kafolatlar tizimini xorijiy tajriba bilan qiyoslab tahlil qilish va O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdir. Buning uchun xorijiy modellarning umumiy xususiyatlarini ajratish, amaldagi milliy normalardan sun’iy intellekt ishtirokidagi qarorlarga nisbatan qanday talablar kelib chiqishini aniqlash, qonunchilikdagi bo‘shliqlarni yopadigan model va norma loyihasini taklif etish kabi vazifalar qo’yildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi to‘rt jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, 7¹-moddaning lingvistik tahlili “faqat” so‘zi qarorni emas, xulosaning yaratilish usulini ta’riflashini ko‘rsatdi va bundan chiqadigan xavf aniqlandi. Ikkinchidan, MTT Qonunining amaldagi normalaridan sun’iy intellekt ishtirokidagi qarorlarga nisbatan o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan talablar tizimlashtirildi. Uchinchidan, sun’iy intellektning uch roliga va ma’muriy ixtiyoriylik tushunchasiga tayanadigan tabaqalashtirilgan kafolatlar modeli, shuningdek mazmunli inson ishtiroki mezonlari taklif etildi. To‘rtinchidan, MTT Qonuniga kiritiladigan 52¹-modda loyihasi ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xorijiy huquqiy adabiyotda masala ikki qutb atrofida muhokama qilinadi. D. Citron avtomatlashtirilgan tizimlar ijtimoiy nafaqa tayinlash, nogironlikni belgilash va soliq hisoblash kabi sohalarda tinglanish va asoslash kafolatlarini chetlab o‘tishini ko‘rsatib, “texnologik due process” (texnologik odil sudlov) g‘oyasini ilgari surgan; u algoritmik audit o‘tkazish va xodimlarning “kompyuter xato qilmaydi” degan ishonchini yo‘qotish zarurligini ta’kidlaydi [8]. C. Coglianese va D. Lehr esa davlat organlarida mashinali o‘rganishdan foydalanish mavjud ma’muriy-huquqiy talablarga zid emasligini, to‘g‘ri tuzilgan tizim inson xatosi va subyektivizmni kamaytirishini asoslaydi [9; 10].

Tushuntirish masalasida L. Edwards va M. Veale GDPR doirasidagi “tushuntirish huquqi”ning amaliy imkoniyatlari cheklangan ekanini tahlil qilgan [11]. S. Wachter va hammualliflar esa murakkab modelning ichki kodini ochish o‘rniga fuqaroga kontrfaktual tushuntirish, ya’ni qaror boshqacha bo‘lishi uchun qaysi omil o‘zgarishi kerakligi haqida izoh berish yetarli bo‘lishi mumkinligini taklif qilgan [12]. Milliy adabiyotda S. Gulyamov, I. Rustambekov va boshqalar sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi loyihasida inson huquq va manfaatlarining sun’iy intellekt ustidan imperativ ustuvorligi tamoyilini ilgari surgan [13]. Biroq bu ishlar umumiy tartibga solishga qaratilgan; 7¹-modda qabul qilinganidan keyin uning ma’muriy tartib-taomillar bilan o‘zaro bog‘liqligi alohida tahlil qilinmagan.

Tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli va loyihalash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil uchun to‘rt yurisdiksiya tanlandi va bu tanlov tasodifiy emas. Yevropa Ittifoqi GDPR va Sun’iy intellekt akti orqali umumiy tayanch me’yor bo‘lib xizmat qiladi. Germaniya avtomatlashtirishni qonun bilan belgilangan “bog‘langan” qarorlar bilan cheklaydigan model namunasi. Fransiya qonun darajasida xabardor qilish va axborot berish majburiyatini belgilagan hamda bu yondashuv konstitutsiyaviy nazoratdan o‘tgan. Kanada esa tizim xavfiga qarab kafolatlarni kuchaytiradigan tabaqalashtirilgan ijro hujjatiga ega.

Taqqoslash oltita mezon bo‘yicha olib borildi: 1) to‘liq avtomatlashtirish chegarasi; 2) fuqaroni xabardor qilish; 3) qarorni asoslash va tushuntirish; 4) inson ishtirokining mazmuni; 5) qayta ko‘rib chiqish va shikoyat; 6) oldindan baholash. Milliy normalar tahlilida “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni va “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning lex.uz dagi 2026-yil noyabr holatidagi matnlari ishlatildi. Tizimli talqin usuli bilan amaldagi normalardan kelib chiqadigan talablar (de lege lata), loyihalash usuli bilan esa takomillashtirish takliflari (de lege ferenda) ajratib ko‘rsatildi.

Natijalar va muhokama

Xorijiy modellar: to‘rt yondashuv. Yevropa Ittifoqida asosiy qoida GDPR 22-moddasida mustahkamlangan: shaxs yuridik oqibat tug‘diradigan yoki unga o‘xshash darajada sezilarli ta’sir qiladigan, faqat avtomatlashtirilgan ishlovga asoslangan qarorga bo‘ysunmaslik huquqiga ega; istisno holatlarda ham insonning aralashuvini talab qilish, o‘z fikrini bildirish va qarorga e’tiroz bildirish kafolatlanadi [14]. Qoidaning ko‘lami Yevropa Ittifoqi Sudining 2023-yil 7-dekabrdagi SCHUFA qarorida (C-634/21) kengaytirildi: Sud kredit reytingini hisoblashning o‘zi, agar uni oluvchi uchinchi shaxs shartnoma tuzish yoki bekor qilishda unga “keskin tayansa”, avtomatlashtirilgan qaror hisoblanishini aniqladi [16]. Muhimi shundaki, Sud shakliy emas, mazmunli mezonni, ya’ni qaror amalda kimning qo‘lida ekanini qo‘lladi. Sun’iy intellekt akti esa davlat xizmatlari va nafaqalardan foydalanish huquqini baholaydigan tizimlarni yuqori xavfli deb tasniflaydi (III-ilova, 5-band). Ular uchun inson nazorati (14-modda), fuqaroni xabardor qilish (26-modda), fundamental huquqlarga ta’sirni baholash (27-modda) hamda qarorda tizimning roli haqida tushuntirish olish huquqi (86-modda) talab qilinadi [15].

Germaniyada 2017-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Ma’muriy ish yuritish to‘g‘risidagi qonunning (VwVfG) 35a-§ ma’muriy hujjatni to‘liq avtomatik qurilmalar orqali chiqarishga ikki shart bilan yo‘l qo‘yadi: bunga qonun ruxsat bergan bo‘lishi va na ma’muriy ixtiyoriylik, na baholash doirasi mavjud bo‘lmasligi kerak [17]. Boshqacha aytganda, to‘liq avtomatlashtirish faqat qonun natijani aniq belgilab bergan “bog‘langan” qarorlar uchun ochiq. Shu qonunning 24-§ birinchi qismi esa organdan avtomatik jarayonda aniqlanmaydigan, lekin ish uchun ahamiyatli holatlarni inobatga olishni talab qiladi [17].

Fransiyada 2016-yilgi “Raqamli respublika to‘g‘risida”gi qonun bilan kiritilgan CRPA L311-3-1-moddasi algoritmik ishlov asosida chiqarilgan yakka qarorda buni ochiq ko‘rsatishni talab qiladi, 2017-yil 14-martdagi 2017-330-son dekret esa fuqaro so‘rovi

bo‘yicha algoritmning qaror qabul qilishdagi ulushi, qo‘llangan ma’lumotlar va ularning manbalari, ishlov parametrlari haqida axborot berishni belgilaydi [18]. Konstitutsiyaviy kengash 2018-yil 12-iyundagi 2018-765 DC-son qarorida bunday qarorlarni qonuniy deb topdi, lekin ularni tushuntirish mumkin bo‘lishi, ma’muriy shikoyat imkoniyati saqlanishi va ishlov beruvchi algoritm hamda uning o‘zgarishlarini nazorat qilishi shartini qo‘ydi; o‘z qoidalarini mustaqil o‘zgartiradigan algoritmlar qarorning yagona asosi bo‘la olmaydi [19].

Kanadada federal darajada Xazina kengashining Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish to‘g‘risidagi direktivasi (2019-yil 1-apreldan, keyingi tahrirlar bilan) har bir tizimdan foydalanishdan oldin algoritmik ta’sirni baholashni majburiy qiladi [20]. Baholash natijasida tizim ta’sir darajasi I–IV ga ajratiladi va daraja oshgani sari talablar kuchayadi: past darajada qarorlar inson ishtirokisiz chiqarilishi mumkin, III–IV darajada esa inson aralashuvi nuqtalari belgilanadi va yakuniy qaror insonda qoladi; fuqaroga oldindan xabarnoma, qaror bilan birga tushuntirish va shikoyat imkoniyatlari haqida axborot beriladi [20]. Xorijiy modellarning milliy holat bilan taqqoslanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Xorijiy modellar va O‘zbekistondagi holatning taqqoslanishi

Mezon	**Xorijiy modellar**	**O‘zbekistondagi holat**
1. To‘liq avtomatlashtirish chegarasi	EI: yuridik oqibatli qarorlarda umumiy taqiq, istisnolar bilan [14]. Germaniya: faqat qonun ruxsati bilan va ixtiyoriylik hamda baholash bo‘lmaganda [17]. Kanada: ta’sir darajasiga qarab [20]	7^1-modda: “faqat” sun’iy intellektga tayanish taqiqlangan; ixtiyoriylik bo‘yicha ajratish yo‘q [3]
2. Fuqaroni xabardor qilish	Fransiya: qarorda ochiq ko‘rsatish [18]. EI: yuqori xavfli tizimlar uchun xabardor qilish [15]. Kanada: oldindan xabarnoma [20]	-

Mezon	Xorijiy modellar	O‘zbekistondagi holat
3. Qarorni asoslash va tushuntirish	EI: qarorda tizimning roli haqida tushuntirish olish huquqi [15]. Fransiya: algoritm parametrlari haqida axborot [18]. Kanada: qaror bilan birga tushuntirish [20]	MTT Qonuni 53–54-moddalari: asosli hujjat talabi (umumiy) [6]
4. Inson ishtirokining mazmuni	SCHUFA: “keskin tayanish” mezoni [16]. EI: inson nazorati talablari [15]. Kanada: inson aralashuvi nuqtalari [20]	7^1-modda: “faqat”; MTT 52-modda: mansabdor shaxs imzosi [3; 6]; mazmun mezonlari belgilanmagan
5. Qayta ko‘rib chiqish va shikoyat	EI: inson aralashuvi va e’tiroz huquqi [14]. Fransiya: ma’muriy shikoyat imkoniyati saqlanadi [19]. Kanada: shikoyat imkoniyatlari haqida axborot [20]	MTT 63–69-moddalar: ma’muriy shikoyat, yuqori organ ishni to‘liq hajmda ko‘radi [6]; sun’iy intellekt ishtiroki haqida xabar berish yo‘q
6. Oldindan baholash	EI: fundamental huquqlarga ta’sirni baholash [15]. Kanada: algoritmik ta’sirni baholash [20]	-

2. Milliy qonunchilik: 7^1-modda va ma’muriy tartib-taomil

7^1-moddaning ikkinchi qismi bir qarashda aniq: insonning huquq va erkinligiga aloqador, yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish chog‘ida “faqat sun’iy intellektdan foydalangan holda yaratilgan axborot resurslari va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlarining xulosalariga” tayanish mumkin emas [3]. Biroq matnning grammatik tuzilishi e’tiborga loyiq: “faqat” so‘zi qarorni emas, xulosaning yaratilish usulini ta’riflaydi. Taqiq “faqat sun’iy intellekt yordamida yaratilgan” xulosaga tegishli. Demak, mansabdor shaxs tizim xulosasini ozgina tahrir qilsa yoki unga o‘z imzosini qo‘ysa, xulosa endi “faqat” sun’iy intellekt mahsuli emas deb talqin qilinishi mumkin va taqiq chetlab o‘tiladi. Yevropa Ittifoqi Sudi aynan shunday shakliy yondashuvni SCHUFA ishida rad etgan edi [16]. Bu talqin

amaliyotda hali sinovdan o‘tmagan, lekin qonun matnidagi noaniqlik uning mavjudligini ko‘rsatadi va inson ishtirokining mazmunini aniqlaydigan mezonlarga ehtiyoj borligini tasdiqlaydi.

“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunda “sun’iy intellekt” iborasi uchramaydi. Shunga qaramay Qonunning 3-moddasiga ko‘ra u davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartib-taomillarga tatbiq etiladi [6], demak, algoritm ishtirokida shakllanadigan qarorlar ham uning prinsip va talablariga bo‘ysunadi. Qonunning 19-moddasi esa ma’muriy tartib-taomil prinsiplariga nomuvofiqlik hujjatning bekor qilinishiga yoki qayta ko‘rib chiqilishiga olib kelishini belgilaydi [6]. Shuning uchun 2-jadvaldagi talablar tavsiya emas, hujjatning qonuniyligi shartidir.

2-jadval. MTT Qonunining amaldagi normalaridan sun’iy intellekt ishtirokidagi qarorlarga nisbatan kelib chiqadigan talablar

Norma	**Mazmuni [6]**	**Sun’iy intellekt ishtirokidagi qarorga nisbatan kelib chiqadigan talab**
9-modda (tinglanish imkoniyati)	Organ manfaatdor shaxsga hujjatni qabul qilish uchun ahamiyatli barcha holatlar bo‘yicha fikr bildirish imkonini beradi	Fuqaro qaror asosida tizim xulosasi borligini bilmasa, fikr bildirish imkoni amalda yo‘q; sun’iy intellekt ishtiroki haqida xabardor qilish zarur
15-modda, ikkinchi qism (teng huquqlilik)	Haqiqiy holatlari bo‘yicha jiddiy farqlanadigan ishlarni bir xil hal etish mumkin emas	Algoritm guruhga xos “o‘rtacha” qoidani qo‘llaydi; individual farqlar inobatga olinishi uchun inson tekshiruvi va fuqaro dalillarini hisobga olish kerak
18-modda (tekshirish prinsipi)	Organ barcha holatlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirishi shart	Tizim natijasiga tekshiruvsiz tayanish prinsipga zid; mansabdor shaxs tekshiruvni mustaqil o‘tkazishi kerak

Norma	Mazmuni [6]	Sun’iy intellekt ishtirokidagi qarorga nisbatan kelib chiqadigan talab
33 va 55-moddalar (xabardor qilish; hujjatning kuchga kirishi)	Hujjat adresat tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan kuchga kiradi; xabardor qilish faktini isbotlash organ zimmasida	Xabarnomada sun’iy intellekt ishtiroki ko‘rsatilmasa, xabardor qilishning to‘laligi savol ostida qoladi
52-modda (hujjat shakli)	Yozma hujjat vakolatli mansabdor shaxs yoki kollegial organ a’zolari tomonidan imzolanadi	Imzo javobgar insonni aniqlaydi; tizim chiqargan hujjatni imzosiz qoldirib bo‘lmaydi
53–54-moddalar (mazmuni va asoslilik)	Hujjat asosli, aniq va tushunarli; asoslantiruvchi qismda barcha haqiqiy va yuridik asoslar; ishtirokchilarga tanishish imkoniyati berilmagan dalillarga tayanish mumkin emas	“Tizim rad etdi” asos bo‘la olmaydi; qarorga hal qiluvchi ta’sir qilgan omillar ko‘rsatilishi va tizim xulosasi dalil sifatida fuqaroga ochiq bo‘lishi kerak
63–66-moddalar (ma’muriy shikoyat)	Shikoyat 30 kun ichida beriladi; yuqori organ ishni to‘liq hajmda ko‘rib chiqadi	Inson tomonidan qayta ko‘rib chiqishning tayyor kanali mavjud; biroq muddat xabardor qilingan paytdan boshlanadi, sun’iy intellekt ishtirokini bilmagan fuqaro esa samarali shikoyat qila olmaydi

Demak, amaldagi normalar ancha narsani beradi: fuqaroni tinglash, tekshiruvni mustaqil olib borish, asosli hujjat chiqarish va uni inson tomonidan qayta ko‘rib chiqish imkoniyati. Shunga qaramay beshta bo‘shliq qoladi. Birinchidan, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida “avtomatlashtirilgan ma’muriy

hujjat” tushunchasi yo‘q. Ikkinchidan, fuqaroni sun’iy intellekt ishtirok etgani haqida xabardor qilish majburiyati belgilanmagan. Uchinchidan, asoslantiruvchi qism algoritm uchun qanday mazmunda bo‘lishi aniq emas. To‘rtinchidan, inson ishtiroki mezonlari yo‘q. Beshinchidan, to‘liq avtomatlashtirish qaysi qarorlar uchun mumkinligi aytilmagan, vaholanki 4-modda “ma’muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat)” tushunchasini allaqachon bilib, 17-modda uning qonuniyligini talab qiladi [6]. Qo‘shimcha holat: “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish sohasiga tatbiq etilmaydi (3-modda) [6]; bunday sohalarda sun’iy intellekt qo‘llansa, kafolatlar maxsus qonunchilikda belgilanishi kerak, 2-modda esa maxsus qoidalar shaxslar holatini yomonlashtirmasligini talab qiladi [6].

3. Taklif etilayotgan model: rolga bog‘liq kafolatlar va mazmunli inson ishtiroki

Birinchi taklif sun’iy intellektni davlat xizmatidagi funksiyasiga qarab uch rolga ajratib, har biri uchun alohida kafolatlar belgilashdir (3-jadval). Chegara Germaniya tajribasidan olinadi, lekin “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning o‘z tushunchasiga tayanadi: to‘liq avtomatlashtirish faqat ma’muriy ixtiyoriylik va baholashni talab qilmaydigan, qonun bilan ruxsat etilgan qarorlar uchun mumkin. Ixtiyoriylik mavjud bo‘lsa, sun’iy intellekt xulosasi tavsiya darajasida qoladi.

3-jadval. Sun’iy intellektning rollari va tabaqalashtirilgan kafolatlar

Rol	**Mazmuni**	**Talab etiladigan kafolatlar**
Axborot beruvchi (“yordamchi”)	Savollarga javob beradi, axborot taqdim etadi; huquqiy oqibat tug‘dirmaydi	Fuqaroni sun’iy intellekt bilan muloqot qilayotgani haqida xabardor qilish; inson operatorga o‘tish imkoniyati
Tavsiya beruvchi (“maslahatchi”)	Qarorga tavsiya yoki reyting tayyorlaydi; qarorni mansabdor shaxs chiqaradi	Mazmunli inson ishtiroki mezonlari; tavsiyadan chetga chiqish imkoniyati; tavsiya mazmunini fuqaroga ochish (54-modda)

Rol	Mazmuni	Talab etiladigan kafolatlar
Qarorni shakllantiruvchi (“hakam”)	Qarorni yoki uning loyihasini inson ishtirokisiz shakllantiradi	Faqat bog‘langan qarorlarda va qonun ruxsati bilan; xabardor qilish; kontrfaktual asoslash; talab bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish; oldindan ta’sirni baholash

Ikkinchi taklif inson ishtirokining mazmunini to‘rt mezon bilan aniqlashdir. Axborot mezoni: mansabdor shaxs tizim xulosasi bilan birga u tayangan asosiy ma’lumotlarni ko‘rishi va bu qayd etilishi kerak. Vakolat mezoni: xulosadan chetga chiqish vakolati va uning amaliy imkoniyati (tizimda xulosani rad etish yoki qayta hisoblash funksiyasi) mavjud bo‘lishi lozim. Vaqt va malaka mezoni: xulosani baholash uchun yetarli vaqt va tayyorgarlik ta’minlanishi shart. Javobgarlik mezoni: asosli chetga chiqqan mansabdor shaxsga nisbatan nomaqbul oqibatlar bo‘lmasligi kerak. Amalda mezonlarga rioya qilinishini tekshirish uchun yana bir ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin: mansabdor shaxslar tizim xulosalarining deyarli barchasini o‘zgarishsiz tasdiqlasa, bu nazoratning shakliyligidan dalolat beradi va SCHUFA qarorida qo‘llangan “keskin tayanish” mezoniga mos keladi [16]. Mezonlar Sun’iy intellekt aktining inson nazoratiga oid talablariga ham mos: u nazorat qiluvchi shaxslar tizim natijasini to‘g‘ri baholay olishi, avtomatlashtirishga ortiqcha ishonish xavfini bilishi va natijadan chetga chiqa olishi kerakligini nazarda tutadi [15].

Uchinchi taklif yuqoridagilarni qonun matniga aylantirishdir. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunga quyidagi mazmundagi 52¹-moddani kiritish maqsadga muvofiq (loyiha):

“52¹-modda. Avtomatlashtirilgan ma’muriy hujjat

Ma’muriy organ tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimining xulosasi asosida, vakolatli mansabdor shaxs ishni mazmunan baholamagan holda shakllantirilgan ma’muriy hujjat avtomatlashtirilgan ma’muriy hujjat hisoblanadi.

Ma’muriy hujjatni avtomatlashtirilgan tarzda qabul qilishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda hamda ma’muriy ixtiyoriylikni (diskretsion vakolatni) yoki baholashni talab qilmaydigan masalalar bo‘yicha yo‘l qo‘yiladi. Boshqa hollarda axborot tizimining xulosasi ma’muriy hujjatni qabul qilayotgan mansabdor shaxs uchun tavsiya xususiyatiga ega bo‘ladi.

Adresat ma’muriy ish yuritishda sun’iy intellekt ishtirok etayotgani, uning maqsadi va

qarorga ta'sir darajasi haqida ma'muriy ish yuritish boshlanganligi to'g'risidagi xabarnomada yoki ma'muriy hujjatda xabardor qilinadi.

Avtomatlashtirilgan ma'muriy hujjatning asoslantiruvchi qismida qarorga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan omillar va ularning qanday o'zgarishi qarorning boshqacha bo'lishiga olib kelishi tushunarli tilda ko'rsatiladi.

Adresatning talabiga ko'ra avtomatlashtirilgan ma'muriy hujjat o'n ish kuni ichida mansabdor shaxs tomonidan axborot tizimining xulosasiga bog'lanmagan holda qayta ko'rib chiqiladi. Bu talab ma'muriy shikoyat berish huquqini cheklamaydi.

Avtomatlashtirilgan ma'muriy hujjat uchun javobgar mansabdor shaxs ma'muriy organ rahbari tomonidan oldindan belgilanadi, uning lavozimi, ismi va familiyasi hujjatda ko'rsatiladi. Ushbu moddada belgilangan talablarga rioya qilmaslik ushbu Qonunning 19-moddasiga muvofiq ma'muriy hujjatning bekor qilinishiga yoki qayta ko'rib chiqilishiga olib keladi."

Loyihadagi muddat va tartib amaliyot va muhokama natijasida aniqlashtirilishi mumkin. Taklif "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 53-moddasidagi talablarga tayanadi. Hujjatda mansabdor shaxsning lavozimi, ismi va familiyasi ko'rsatilishi shart [6]. Agar ma'muriy tartib-taomillarga oid qonunning yangi tahriri qayta ko'rib chiqilsa, bu qoidalarni unga kiritish mumkin.

Xulosa. Tahlil shuni ko'rsatdiki, xorijiy tajribada sun'iy intellekt ishtirokidagi ma'muriy qarorlar uchun kafolatlar avtomatlashtirish chegarasi, fuqaroni xabardor qilish va tushuntirish, inson ishtirokining mazmuni hamda qayta ko'rib chiqish imkoniyati kabi to'rt yo'nalishda mustahkamlanadi. O'zbekistonda 7^1-modda qabul qilinishi bilan birinchi yo'nalishda umumiy asos yaratildi, ammo uning matni "faqat" so'zi tufayli shakliy inson ishtirokida chetlab o'tilishi mumkin bo'lgan taqiqni belgilaydi. Shu bilan birga "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning amaldagi normalaridan fuqaroni tinglash, tekshiruvni mustaqil o'tkazish, hujjatni asoslash va imzo bilan javobgarlikni belgilash talablari sun'iy intellekt ishtirokidagi qarorlarga ham tatbiq etilishi kelib chiqadi.

Qonunchilikni takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi: "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga "avtomatlashtirilgan ma'muriy hujjat" tushunchasi va 52^1-moddani kiritish; to'liq avtomatlashtirishni ma'muriy ixtiyoriylik va baholashni talab qilmaydigan, qonun bilan ruxsat etilgan qarorlar bilan cheklash; sun'iy intellekt ishtiroki haqida xabardor qilish va kontrfaktual asoslash majburiyatini belgilash; inson ishtirokining mazmunli bo'lishi mezonlarini mustahkamlash; talab bo'yicha mansabdor shaxs tomonidan qayta ko'rib chiqish tartibini kiritish takliflarini berishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-iyuldagi PQ-425-son qarori “2025–2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/ru/pdfs/-7621993.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktyabrdagi PF-189-son Farmoni “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/en/docs/-7789403
3. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2003-yil 11-dekabr, 560-II-son (2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonun bilan kiritilgan o‘zgartirishlar, 3-, 7¹-moddalar bilan). URL: https://lex.uz/acts/-83472.
4. Sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha etika qoidalari (Raqamli texnologiyalar vazirining 2026-yil 24-fevraldagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan; Adliya vazirligida 2026-yil 14-martda 3787-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan). URL: https://lex.uz/uz/docs/8083233 .
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-iyuldagi PF-141-son Farmoni (raqamli texnologiyalar sohasida strategik rejalashtirish va davlat nazoratini takomillashtirish haqida). URL: https://gov.uz/oz/digital/news/view/198089
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2018-yil 8-yanvar, O‘RQ-457-son. URL: https://lex.uz/en/acts/-3492199.
7. Senatda “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun rad etildi // O‘zA. – 2026. – 3-oktyabr. URL: https://uza.uz/oz/posts/senatda-mamuriy-tartib-taomillar-togrisidagi-qonun-rad-etildi_916657.
8. Citron D.K. Technological Due Process // Washington University Law Review. – 2008. – Vol. 85, No. 6. – P. 1249–1313.
9. Coglianese C., Lehr D. Regulating by Robot: Administrative Decision Making in the Machine-Learning Era // Georgetown Law Journal. – 2017. – Vol. 105. – P. 1147–1223.
10. Coglianese C., Lehr D. Transparency and Algorithmic Governance // Administrative Law Review. – 2019. – Vol. 71, No. 1. – P. 1–56.
11. Edwards L., Veale M. Slave to the Algorithm? Why a “Right to an Explanation” Is Probably Not the Remedy You Are Looking For // Duke Law & Technology Review. – 2017. – Vol. 16, No. 1. – P. 18–84.
12. Wachter S., Mittelstadt B., Russell C. Counterfactual Explanations without Opening the Black Box: Automated Decisions and the GDPR // Harvard Journal of Law & Technology. – 2018. – Vol. 31, No. 2. – P. 841–887.
13. Гулямов С.С., Рустамбеков И.Р., Нарзиев О.С., Худайберганов А.Ш. Проект

Концепции Республики Узбекистан в области развития искусственного интеллекта на 2021–2030 годы // Yurisprudensiya. – 2021. – №1. – С. 106–120.
14. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 (General Data Protection Regulation), Art. 22. URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj.
15. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act), Annex III, Arts. 14, 26, 27, 86. URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj
16. Court of Justice of the European Union. Judgment of 7 December 2023, Case C-634/21, OQ v Land Hessen (SCHUFA Holding (Scoring)), ECLI:EU:C:2023:957.
17. Verwaltungsverfahrensgesetz (VwVfG) [Ma’muriy ish yuritish to‘g‘risidagi qonun], §§ 24, 35a. – Berlin, 2017. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/vwvfg/
18. Code des relations entre le public et l’administration, art. L311-3-1 [Jamoatchilik va ma’muriyat munosabatlari kodeksi]; Décret n° 2017-330 du 14 mars 2017, art. R311-3-1-1, R311-3-1-2. – Paris: Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr .
19. Conseil constitutionnel. Décision n° 2018-765 DC du 12 juin 2018, Loi relative à la protection des données personnelles [Konstitutsiyaviy kengash qarori]. URL: https://www.conseil-constitutionnel.fr/decision/2018/2018765DC.htm
20. Treasury Board of Canada Secretariat. Directive on Automated Decision-Making [Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish to‘g‘risidagi direktiva]. – Ottawa, 2019 (amended 2023). URL: https://www.tbs-sct.canada.ca/pol/doc-eng.aspx?id=32592 .